
SEMINAR BO'LIB O'TDI

Qo'shtepa tumani hokimligining katta majlislar zalida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 8 yanvar kungi "Xotin-qizlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori mazmun-mohiyatini keng o'rganish, unda belgilab berilgan ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlash yuzasidan amaliy seminar bo'lib o'tdi.

ISLOHOTLARIMIZ SAMARATINI
HAR BIR OILA O'Z HAYOTIDA
HIS ETISHI KERAK

SHAYKAT MIR

YANGI O'ZBEKISTONNI YOSHLAR
BILAN BIRGA QURAMIZ!
SH. M. NORZIYOV

YANGI O'ZBEKIS
YANGICHA DUNYO



Seminarda Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi mas'ul xodimi K.Norqulova, Farg'ona viloyati AT Xalq banki boshqaruvi raisining xotin-qizlar masalalari bo'yicha o'rinbosari G.Rashidova, viloyat hokimining xotin-qizlar masalalari buyicha maslahatchisi - Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari D.Ergasheva, tumandagi tegishli tashkilotlar, mahalla fuqarolar yig'inlari raislari va ularning oila, xotin-qizlar va ijtimoiy-ma'naviy masalalar bo'yicha o'rinbosarlari ishtirok etdilar.



Seminarda “Ayollar daftari”ning tizimli yuritilishi, xatlov davomida aniqlangan muammolarning ijobiy hal etilishi yuzasidan kerakli tavsiyalar berildi.

Qo’shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati.

2021-01-14 15:47:30